

O'qituvchining muomala madaniyati

Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova

maxliyo82uz@gmail.com

Andijon davlat chet tillari instituti

Moxinur Diyorbek qizi Uzoqjonova

moxinur25102004@gmail.com

ADPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi o'zaro bir-biriga bo'lgan shaxsiy munosabatlari, ustoz - shogird, nutq jarayoni, o'qituvchi tarbiyasi, amaliy pedagogika haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: muomala, muomala madaniyati, zamonaviy ta'lim, tarbiya, milliy g'oya, motiv, pedagogik faoliyat, faoliyat turlari, shaxsni anglash

Behavioral culture of the teacher

Makhliyokhan Madaminjonovna Mirzakarimova

makhlyo82uz@gmail.com

Andijan State Institute of Foreign Languages

Mohinur Diorbek kizi Uzogjonova

moxinur25102004@gmail.com

ASPI

Abstract: This article talks about the teacher's personal relationship with the participants of the pedagogical process, teacher-student, speech process, teacher training, practical pedagogy.

Keywords: treatment, culture of treatment, modern education, training, national idea, motive, pedagogical activity, types of activity, personality awareness

O'zbek xalqining bola tarbiyasida ko'p asrlar davomida orttirgan tajribasini o'rganish va tiklash jamiyatimiz oldiga qoyilgan asosiy, oliy maqsad va vazifalardandir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasi, g'oyasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat qilishi kerakligini aytib, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

Milliy pedagogika tariximizni, pedagogik nazariyani, umumbashariy pedagogik taraqqiyoti, pedagogik nazariya rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk olimu shoirlarimizning ta'limotlari, nazariyalarini o'rganish ham mustaqil fikrlovchi, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bolgan inson shaxsini shakllantirish va yetishtirishda g'oyat muhimdir. Shuning uchun asrlar davomida bola ta'lim-tarbiyasida o'qituvchining tutgan ro'li muhim hisoblanib, ta'lim berish jarayonida o'qituvchi muomala madaniyatiga alohida e'tibor berilgan. Asrlar davomida, Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan, diniy dunyoqarash bilam qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk ajdodlarimizning XIX asr va XX asr mutafakkirlari va pedagoglari, shuningdek Sharq va Yevropa olim shoirlarining o'z amaliy tajribalari asosida ta'lim-tarbiya, pedagogik muomala madaniyati xususida aytgan nazariy fikrlari - pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham axloqiy tarbiya uchun ham muhimligi sir emas.

Zamoniy ta'lim-tarbiya asri davomida, o'qituvchi muomala madaniyatida biroz bo'lsa ham kamchiliklar sezilmoqda, shu sababli dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro bog'liqlik yo'qolib bormoqda. Bunday jarayon o'quvchining tarbiya madaniyati bilan birgalikda ta'lim sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar o'quvchilar bilan pedagogik aloqa o'rnatishni tashkil etishda o'zlarining yetakchi o'rin tutishlarini anglamaydilar. O'qituvchilarning 25 foizi o'quvchilar bilan yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarga o'quvchilarni, ularning tarbiyasizliklarini sabab qilib ko'rsatishadi. Ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kelishiga o'zining ham anchagina hissasi borligini afsuski tan olishni istamaydilar. Aslida murosasiz jarayonlarning paydo bo'lishiga, asosiy omil sifatida pedagogik muomala madaniyatini ko'rsatadigan bo'lsak adashmagan bo'lamiz. Ham o'qituvchi, ham erisha olmaydigan muomala madaniyati bola tarbiyasida asosiy o'rinni egallaydi. Pedagogik muomala madaniyati hozirgi paytda ta'lim sohasida uchrab kelayotgan dolzarb muammolaridan biri hisoblanib kelinmoqda.

Aslida o'qituvchida yetishmayotgan muomala qanday bo'ladi degan savolga hayotiy tajribalarga tayangan holda javob beradigan bo'lsak, muomala nafaqat ta'lim sohasi balki, boshqa sohalar uchun, tibbiyot, servis xizmatlari, kundalik hayotimiz uchun ham zarur bo'lgan, muhim qurol hisoblanadi.

Ko'pgina pedagogik izlanishlarga ko'ra esa muomala pedagog mehnat faoliyatining muhim elementi ekanligi asoslab berilgan. Bu esa o'qituvchining ijobiy psixologik iqlimni yaratishga qaratilgan, darsda va darsdan tashqari holatlarda o'quvchilar bilan olib boriladigan hamkorlik bo'lib, bu hamkorlik o'quvchiga nisbatan notog'ri tarzda olib boriladigan bo'lsa, o'quvchida darsga nisbatan qiziqish va zavqlanish so'nib boradi. O'quv fanlarga nisbatan qiziqishi so'ngan o'quvchini, dars jarayonlarga jalb qilish mushkul vazifa hisoblanib, bunday holat kelajakka

nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatish bilan teng baholanadi. O'ylab ko'ringa, darsdan zavqlanish o'rniga undan begonalashish, o'qituvchiga nisbatan bezish hollari paydo bo'lishi, juda achinarli holat. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, aslida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muomala madaniyati, o'quvchiga zavq, o'quv jarayonlariga nisbatan qiziqish va o'quvchining bilim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir qilishi kerak.

Shaxsni anglash, hamfikrlik, o'z-o'zini anglash, o'zaro axborot almashish - bular o'qituvchi muomala madaniyatini asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonlar orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ustozshogird an'anasi yuzaga keladi. Bu an'ana orqali o'qituvchi o'quvchining imkoniyatlarini xolisona baholashga, boshqalar fikrini qabul qila olish, ijobiy o'quv motivlarini va ongli izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday o'qituvchi muomala madaniyati orqali erishgan eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchining muomala madaniyati amaliy pedagogik taraflama ham o'z yo'nalishlari ma'lum bo'lib, bu bosqichlar o'qituvchining xarakteriga nisbatan ajratilmagan. Dastlabki bosqichda, o'qituvchi dars jarayoniga tayyorlayotgan material faqat o'qituvchini emas, balki o'quvchilar nuqtai nazaridan ham o'ylangan bo'lishi kerak va keyingi davrlarda o'qituvchi o'zining bor potensialini ishga solgan holda dinamik harakatni amalga oshirib, o'quvchilarni boshqara olishi kerak. Bu bosqichlarning hammasi muomalaning samadorligiga xalaqit beradigan to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi. Bunday to'siqlar ayniqsa, pedagogik faoliyatning boshlanishida tez-tez uchraydi. Misol qilib oladigan bo'lsak, dastlabki sinfga bo'lgan qo'rquv, nuqtning ta'sirchanmasligi, bolalarning darsga dinamik jarayonini pastligi, o'qituvchida turli xil to'siqlarni vujudga keltiradi. Buni, yengishni asosiy omili o'ziga bo'lgan ishonch. Agar o'qituvchida o'ziga bo'lgan ishonch yetishmasa, unda keyinchalik ham o'quvchilar bilan ishlash jarayonida turli xil qiyinchiliklarga duch kelaveradi. Ularni yengib o'tish uchun o'qituvchidan kuchli pedagogik muomala madaniyati talab etiladi va shu bilan birgalikda bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni va axloqiy, tarbiyani egallab oladi. Shuning uchun ham o'qituvchi pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Bu jarayonda o'qituvchiga, uning axloqiy, xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida yuksak talablar qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.

2. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL

TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - №. 8. - С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.

3. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. - 2022. - С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.

4. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". - 2020. - Т. 1. - №. 1. - С. 63-65.

5. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.

6. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.

7. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. - 2023. - Т. 5. - №. 3. - С. 15-17. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS/article/view/4083>.

8. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. - 2022. - №. 1. - С. 1-128. Retrieved from <http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23>.

9. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - №. 6. - С. 410-415. Retrieved from <https://research-edu.com/index.php/namdu/article/view/309>.

10. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 11. - С. 78-83. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6393>.

11. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 12. - С. 321-324. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6486>

12. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. - 2024. - T. 5. - №. 2. - C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>

13. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. - 2024. - T. 5. - №. 3. - C. 264-269. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6821>.

14. H Tojiboyev, M. U., & Uzoqjonova, M. D. qizi. (2023). Farg'ona vodiysida tarqalgan ruderal shifobaxsh o'simliklar, ularning tarqalishi va ahamiyati. Science and Education, 4(8), 101-107. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6222>.

15. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limi tizimi. Science and Education, 4(9), 344-347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.

16. Uzoqjonova, M. D. qizi. (2023). Inson salomatligida dorivor o'simliklarning xususiyatlari. Science and Education, 4(7), 38-42. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6136>.

17. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. Science and Education, 4(10), 365-368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.

18. Uzoqjonova, M. D. qizi. (2024). Baliqlar va ularning ekologik ahamiyati. Science and Education, 5(1), 13-17. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6556>.